



New Day in Medicine
Новый День в Медицине

NDM



TIBBIYOTDA YANGI KUN

Ilmiy referativ, marifiy-ma'naviy jurnal



AVICENNA-MED.UZ



ISSN 2181-712X.
EiSSN 2181-2187

6 (80) 2025

**Сопредседатели редакционной
коллегии:**

**Ш. Ж. ТЕШАЕВ,
А. Ш. РЕВИШВИЛИ**

Ред. коллегия:
М.И. АБДУЛЛАЕВ
А.А. АБДУМАЖИДОВ
Р.Б. АБДУЛЛАЕВ
Л.М. АБДУЛЛАЕВА
А.Ш. АБДУМАЖИДОВ
М.А. АБДУЛЛАЕВА
Х.А. АБДУМАДЖИДОВ
Б.З. АБДУСАМАТОВ
М.М. АКБАРОВ
Х.А. АКИЛОВ
М.М. АЛИЕВ
С.Ж. АМИНОВ
Ш.Э. АМОНОВ
Ш.М. АХМЕДОВ
Ю.М. АХМЕДОВ
С.М. АХМЕДОВА
Т.А. АСКАРОВ
М.А. АРТИКОВА
Ж.Б. БЕКНАЗАРОВ (главный редактор)
Е.А. БЕРДИЕВ
Б.Т. БУЗРУКОВ
Р.К. ДАДАБАЕВА
М.Н. ДАМИНОВА
К.А. ДЕХКОНОВ
Э.С. ДЖУМАБАЕВ
А.А. ДЖАЛИЛОВ
Н.Н. ЗОЛотова
А.Ш. ИНОЯТОВ
С. ИНДАМИНОВ
А.И. ИСКАНДАРОВ
А.С. ИЛЬЯСОВ
Э.Э. КОБИЛОВ
А.М. МАННАНОВ
Д.М. МУСАЕВА
Т.С. МУСАЕВ
М.Р. МИРЗОЕВА
Ф.Г. НАЗИРОВ
Н.А. НУРАЛИЕВА
Ф.С. ОРИПОВ
Б.Т. РАХИМОВ
Х.А. РАСУЛОВ
Ш.И. РУЗИЕВ
С.А. РУЗИБОВЕВ
С.А. ГАФФОРОВ
С.Т. ШАТМАНОВ (Кыргызстан)
Ж.Б. САТТАРОВ
Б.Б. САФОВЕВ (отв. редактор)
И.А. САТИВАЛДИЕВА
Ш.Т. САЛИМОВ
Д.И. ТУКСАНОВА
М.М. ТАДЖИЕВ
А.Ж. ХАМРАЕВ
Б.Б. ХАСАНОВ
Д.А. ХАСАНОВА
Б.З. ХАМДАМОВ
А.М. ШАМСИЕВ
А.К. ШАДМАНОВ
Н.Ж. ЭРМАТОВ
Б.Б. ЕРГАШЕВ
Н.Ш. ЕРГАШЕВ
И.Р. ЮЛДАШЕВ
Д.Х. ЮЛДАШЕВА
А.С. ЮСУПОВ
Ш.Ш. ЯРИКУЛОВ
М.Ш. ХАКИМОВ
Д.О. ИВАНОВ (Россия)
К.А. ЕГЕЗАРЯН (Россия)
DONG JINCHENG (Китай)
КУЗАКОВ В.Е. (Россия)
Я. МЕЙЕРНИК (Словакия)
В.А. МИТИШ (Россия)
В.И. ПРИМАКОВ (Беларусь)
О.В. ПЕШИКОВ (Россия)
А.А. ПОТАПОВ (Россия)
А.А. ТЕПЛОВ (Россия)
Т.Ш. ШАРМАНОВ (Казахстан)
А.А. ЩЕГОЛОВ (Россия)
С.Н. ГУСЕЙНОВА (Азербайджан)
Prof. Dr. KURBANHAN MUSLUMOV (Azerbaijan)
Prof. Dr. DENIZ UYAK (Germany)

**ТИББИЁТДА ЯНГИ КУН
НОВЫЙ ДЕНЬ В МЕДИЦИНЕ
NEW DAY IN MEDICINE**

*Илмий-рефератив, маънавий-маърифий журнал
Научно-реферативный,
духовно-просветительский журнал*

УЧРЕДИТЕЛИ:

**БУХАРСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ
МЕДИЦИНСКИЙ ИНСТИТУТ
ООО «ТИББИЁТДА ЯНГИ КУН»**

Национальный медицинский
исследовательский центр хирургии имени
А.В. Вишневского является генеральным
научно-практическим
консультантом редакции

Журнал был включен в список журнальных
изданий, рецензируемых Высшей
Аттестационной Комиссией
Республики Узбекистан
(Протокол № 201/03 от 30.12.2013 г.)

РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ:

М.М. АБДУРАХМАНОВ (Бухара)
Г.Ж. ЖАРЫЛКАСЫНОВА (Бухара)
А.Ш. ИНОЯТОВ (Ташкент)
Г.А. ИХТИЁРОВА (Бухара)
Ш.И. КАРИМОВ (Ташкент)
У.К. КАЮМОВ (Ташкент)
Ш.И. НАВРУЗОВА (Бухара)
А.А. НОСИРОВ (Ташкент)
А.Р. ОБЛОКУЛОВ (Бухара)
Б.Т. ОДИЛОВА (Ташкент)
Ш.Т. УРАКОВ (Бухара)

6 (80)

2025

ИЮНЬ

www.bsmi.uz
https://newdaymedicine.com E:
ndmuz@mail.ru
Тел: +99890 8061882

Received: 20.05.2025, Accepted: 10.06.2025, Published: 15.06.2025

UDC 616(072)+616-091(072)-053.3

NEONATAL O‘LIMLARDA PNEVMOPATIYALARNING KLINIK-MORFOLOGIK O‘ZGARISHLARI XUSUSIYATLARI

Abdullaeva N.J. E-mail: AbdullaevaN@mail.ru
Mamataliyeva M.A. E-mail: MamataliyevaM@mail.ru
Ahmedova M. E-mail: AhmedovaM@mail.ru

Andijon davlat tibbiyot instituti O‘zbekiston, Andijon, Otabekov 1
Tel: (0-374) 223-94-60. E.mail: info@adti

✓ Rezyume

Mazkur tadqiqotda Andijon viloyatida 2021–2024 yillar davomida erta va kech neonatal o‘lim holatlarida o‘tkazilgan autopsiya materiallari asosida klinik-morfologik jihatlar o‘rganildi hamda BABIES matritsasi ko‘rsatkichlari bo‘yicha statistik ma‘lumotlar tahlil qilindi. Andijon viloyatida neonatal o‘limlar asosan erta neonatal davrda va tana vazni 2500 grammdan ortiq bo‘lgan chaqaloqlarda ko‘proq kuzatildi. Erta neonatal davrda (1–7 kun) yangi tug‘ilgan chaqaloqlarda ichki a‘zolarida venoz to‘yinish, mikrosirkulyator rusumda gemodinamik buzilishlar, o‘pka to‘qimalarida birlamchi va ikkilamchi atelektazlar, bronxiola shilliq qavatining deskvamasiyasi kuzatildi. Diffuz atelektaz bilan kechuvchi yetilmagan bolalarda shish-gemorragik sindrom kuzatilib, bu erta neonatal o‘limga olib keladi. Hamma hollarning 1/5 qismida o‘lik tug‘ilish qayd etilgan. Bu davrda gigiyalin membranalar va mayda arteriyalardagi konstruktiv arterit kuzatilgan. Kech neonatal davrda (8–28 kun) nafas yo‘llarining shakllanishi ro‘y beradi, bunda surfaktant miqdorining ortishi ayrim nafas yo‘llarining differensiyalanishi va vaskulyarizatsiyasi bilan birga kechadi. O‘pkalarda ko‘proq venoz tiqilish, shish, diapidez va qon quyilishlar kuzatilgan. Atelektazlar va emfizema kuzatilmadi. Shish-gemorragik shakldagi pnevmopatiyalar ustunlik qildi

Kalit so‘zlar: pnevmopatiya, gestatsiya, asfiksiya, yetilmagan homila, patomorfologik o‘zgarishlar

CHARACTERISTICS OF CLINICAL MORFOLOGY CHANGES IN PNEUMOPATHIES IN NEONATAL DEATHS

Abdullaeva N.J., Mamataliyeva M.A., Ahmedova M.

Andijan State Medical Institute, 170100, Uzbekistan, Andijan, Atabekova st.1
Тел:(0-374)223-94-60. E-mail: info@adti

✓ Resume

The study investigated the clinical and morphological aspects of autopsy materials in the deaths of newborns with early and late neonatal death in the Andijan region in 2021-2024, and analyzed statistical data on the BABIES matrix indicators. In the Andijan region, early and late neonatal deaths were observed more often in the early neonatal period, and more often among infants weighing more than 2500 grams. In the early neonatal period (1-7 days), newborns show with venous engorgement of internal organs, hemodynamic disorders in the microcirculatory bed, primary and secondary atelectasis in the lung tissue, desquamation of the bronchiolar mucosa. Edema-hemorrhagic syndrome was observed in immature infants with diffuse atelectasis, leading to early neonatal deaths. Stillbirths accounted for approximately one in five cases. Constrictive arteritis of hyaline membranes and small arteries was observed during this period. In the late neonatal period (8-28 days), maturation the respiratory tract was observed, and an increase in surfactant production occurred in parallel with the differentiation and vascularization of some respiratory departments. Venous congestion, edema, diapедesis, and hemorrhages were more common in the lungs, while atelectasis and emphysema were not present. The edematous-hemorrhagic form of pneumopathies was noted to be predominant

Keywords: pneumopathy, gestation, asphyxia, immature fetus, pathomorphological changes

ХАРАКТЕРИСТИКА КЛИНИКО-МОРФОЛОГИЧЕСКИХ ИЗМЕНЕНИЙ ПНЕВМОПАТИИ ПРИ НЕОНАЛЬНОЙ СМЕРТИ НОВОРОЖДЕННЫХ

Абдуллаева Н.Ж., Маматалиева М.А., Ахмедова М.

Андижанский государственный медицинский институт Узбекистон, Андижон,
ул. Атабеков 1 Тел:(0-374)223-94-60. E-mail: info@adti

✓ Резюме

В исследовании изучены клинико-морфологические аспекты аутопсийных материалов при смерти новорожденных с ранней и поздней неонатальной смертью Андижанской области в 2021-2024 годах, проанализированы статистические данные по показателям матрицы BABIES. В Андижанской области ранняя и поздняя неонатальная смерть наблюдалась чаще в раннем неонатальном периоде, и чаще у детей с массой тела более 2500 граммов. В раннем неонатальном периоде (1-7 сутки) у новорожденных наблюдается венозное полнокровие во внутренних органах, гемодинамические нарушения в микроциркуляторном русле, первичные и вторичные ателектазы в легочных тканях, десквамация слизистой оболочки бронхиол. У незрелых детей с диффузным ателектазом наблюдается отечно-геморрагический синдром, приводящий к ранней неонатальной смерти. Мертворождения регистрируются в 1/5 случаев. В этот период наблюдается констриктивный артериит гиалиновых мембран и мелких артерий. В позднем неонатальном периоде (8-28 сутки) происходит формирование дыхательных путей, причем увеличение сурфактанта идет параллельно с дифференцировкой и васкуляризацией некоторых отделов дыхательных путей. В легких чаще наблюдались венозный застой, отек, диapedез и кровоизлияния. Ателектазы и эмфизема не наблюдалось. Отмечено, преобладание отечно-геморрагической формы пневмопатий

Ключевые слова: пневмопатия, гестация, асфиксия, незрелый плод, патоморфологические изменения

Dolzarbligi

Yangi tug'ilgan chaqaloqlarning nafas olish kasalliklari orasida pnevmopatiya kasallanishlar ichidan nafas olish kasalliklari 2-o'rinni egallaydi (8,8%) va ko'pincha erta tug'ilgan chaqaloqlarda nafas olish tizimining morfofunktsional xususiyatlari tufayli rivojlanadi [4].

Pnevmpatiya oqibatida yangi tug'ilgan norosa chaqaloqlarni perinatal davridagi o'lim xolatlarini yuqoriligi ushbu patologiyalarda o'pka alveolalari va bronxiolalari parenximasi va mezenxima tuzilmalaridagi patomorfologik o'zgarishlarni yanada mukammal o'rganishni taqozo etadi.

Yangi tug'ilgan chaqaloqlarning bu patologiyasi o'pkaning yallig'lanishsiz jarayoni hisoblanib, u atelektaz, shish – gemorragik o'zgarishlar va gialin membranalar va b. bilan namoyon bo'ladi. Pnevmpatiyaning klinik ko'rinishi turli darajadagi og'ir nafas olish buzilishi bo'lib, o'pka distress sindromi deb ataladi.

Pnevmpatiyalarda tarqalgan intravaskulyar koagulyatsiyalar ko'p kuzatiladi, bu iste'mol koagulopatiyasiga, gemorragik sindromning rivojlanishiga va o'pkadan qon ketishiga olib keladi.

Pnevmpatiyalar davlatning nozik demografik ko'rsatkichi bo'lgan perinatal o'lim ko'rsatkichi (xomiladorlikning 28xaftasidan tug'ilgandan so'ngi 7kun oralig'i davrdagi o'lim) ortishiga ijobiy xissa qo'shishi tobora ortib bormoqda [1,2,3].

Yangi tug'ilgan chaqaloqlardagi o'pka atelektazlari dastlabki 2 kunda bronx-alveolyar to'qimalarni o'ziga xos tuzilishi va nafas olishni markazi boshqarilishi buzilishi oqibatida alveolalarni yozilmasligi yoki yozilganni qayta yopilib qolishi bilan namoyon bo'ladi. 2-3kunda yallig'lanish kuzatilib, ushbu joylarda makrofaglar, neyotrofillar, deskvamastiyalangan alveostitlar topiladi. 1-2 xaftadan keyin esa alterativ – proliferativ jarayonlar avjlanib, o'chog'li pnevmoniya va b. o'zgarishlar rivojlanadi.

Tug'ilganidan so'ng dastlabki kunlaridagi yangi tug'ilgan chaqaloqlarni o'limi respirator distress sindromdan (RDS) ko'proq bo'ladi, ayniqsa etuk bo'lgan chaqaloqlarda kuzatiladi [5,6,7].

Tadqiqot maqsadi: yangi tug'ilgan chaqaloqlardagi pnevmopatiyalarni klinik va morfologik o'zgarishlarni o'ziga hos jihatlari o'rganish.

Material va usullar

Tadqiqotda 2020-2024yillarida Andijon viloyati tug'ruq komplekslarida, perinatal markazida vafot etgan yangi tug'ilgan chaqoloqlar avtopsiya materiallari antropometrik, patomorfologik jixatlarini o'rganish va BABIES matritsasi ko'rsatkichlari bo'yicha statistik ma'lumotlarni tahlil qilish.

Yangi tug'ilgan chaqoloqlar pnevmopatiyada o'pka shikastlanishini chastotasi, tarqalishi va darajasi odatda uning etukligiga, xavf xatar omillariga bog'liq bo'ldi.

2021-2024 yillarda Andijon viloyatida 344475ta tug'ilishlar qayd etilib, shulardan 2514tasida erta va kechki neonatal o'limlar kuzatilgan. O'RVI, TORCh infektsiyalar xomiladorlarni 1/3 qism kontingentida qayd etilib, uning 3/4 qismi turli gestasiya yoshiga, o'pka to'qimasini etilishiga salbiy ta'sir ko'rsatdi. Xomiladorlik davrida rivojlangan subklinik gipotireozlar xavf omili sifatida qayd etilib, xomiladorlarni 3/4 qismida qayd etildi. 22% xomiladorlarda qandli diabet kuzatilgan.

Yangi tug'ilgan chaqoloqlarda pnevmopatiyalarni turli ko'rinishlari o'pka alveolalari va bronxiolalari parenximasi va mezenxima tuzilmalaridagi patomorfologik o'zgarishlarni yuzaga keltirib u klinik kuzatuvlar, makro-mikroskopik o'zgarishlar bilan namoyon bo'ldi. BABIES matritsasi ko'rsatkichlari bo'yicha statistik ma'lumotlarni tahlil qilinganda tadqiqot yillarida Andijon viloyatida erta va kechki neonatal o'lim xolatlarini ko'proq erta neonatal davrda kuzatilib, nisbatan ko'proq 2500gramdan katta o'lchamlarida chaqoloqlarda qayd etilib, 2021yilda nisbatan ko'proq, kechki neonatal o'limlar esa tana vazni 1500 gramdan kichik chaqoloqlarda ko'proq kuzatilgan (diagramma -1).

Diagramma 1





Diagramma 2




Asfiksiya bilan tug'ilgan chaqoloqlarda pnevmopatiyalar tana vazni 2500gramdan kichik chaqoloqlarda erta neonatal davrda kuzatilib, u nisbatan ko'proq 2024yilda qayd etildi (diagramma - 2). Tana vazni 2500gramdan yuqori chaqoloqlarda esa bu ko'rsatkich tadqiqot yillarida stabil bir xilda namoyon bo'ldi.

Yetuk bo'lmagan chaqoloqlarda pnevmopatiyalardagi o'lim chastotasi o'rganilganda o'lim xolatlarini asosan erta neonatal davrda kuzatilib, tana vazni 2500gramdan kichik bo'lgan chaqoloqlarda u stabil baland bo'lishi, tana vazni 2500gramdan yuqori chaqoloqlarda esa tadqiqot yillari davomida pasayishi kuzatildi (diagramma -3). Yangi tug'ilgan chaqoloqlarni 1-7 kunlik davrlarida esa ichki a'zolarida venoz to'laqlonlilik


va mikrostirkulyator o'zanida gemodinamik buzilishlar bilan birgalikda o'pka to'qimasida birlamchi va ikkilamchi atelektazlar, bronxiolalar shilliq qatlami deskvamatsiyasi kuzatildi.

Diagramma 3

Yetuk bo'lmagan chaqoloqlarda pnevmopatiyalardagi o'lim chastotasi




Rasm –1. Terminal bronxiolalar va alveolalar bo'shlig'ida qog'onoq suvi, keratinlashgan epiteliy, bronxiolalar shilliq qatlami epiteliysi, alveolalar alveostitlarini deskvamatsiyasi, ayrim alveolalarda qirmizi gomogen massa, mo'tadil venoz to'laqonlilik, oraliq to'qimasini shishi, diapedez qon quyilishlar. Gematoksilin – eozin usulida bo'yash. Kattalashtirish 10*12.5.



Yangi tug'ilgan chaqoloqlarni 1-7 kunlik davrlarida venoz to'laqonlilik (98%), emfizema (49%), birlamchi va ikkilamchi atelektazlar (64.7%), gialin membranalar (3.9%), diapedez qon quyilishlar (68.6%), seroz shish (5.9%), bronxiolalar shilliq qatlami epiteliysini deskvamatsiyasi (47.1%) xolatda qayd etildi.

Rasm – 2. Terminal bronxiolalar va alveolalar shilliq qatlamini deskvamatsiyasi, bo'shlig'ida seroz – gemorrargik suyuqlik, alveolalar aro to'siqni qalinlashuvi, o'chog'li biriktiruvchi to'qimani o'sishi, shish, stromasida limfoid hujayralar infiltratsiyasi. Gematoksilin – eozin usulida bo'yash. Kattalashtirish 10*12.5



O'pka xavosiz, qizg'ish-binafsha rangda, xajmi va og'irligi ortgan bo'ldi. Gialin membranalar bir jinsli eozinofil massa – respirator bronxiolalar va qisman yozilgan alveolalar yuzasini qoplashi kuzatildi, mayda arteriyalarda konstitiv arteriit kuzatildi. Shish-gemorrargik sindrom o'pkalarni etukmasligi bilan bog'liq bo'ldi. Shish - gemorrargik sindrom etuk bo'lmagan xomilalarda tarqoq atelektazlarlar bilan kuzatildi, 1/5 xolatda o'lik tug'ilishlar qayd etildi.

8-28kunlarida nafas olish yo'llari shakllangan, yuza faol moddani mukammalashishi ayrim respirator bo'limlarini differenstirovkasi va vaskulyarizatsiyasi bilan parallel bo'ldi. O'pkalarda venoz to'laqonlilik, shish, diapidez qon quyilishlar ko'proq kuzatilib, atelektaz va emfizemalar kuzatilmadi. Pnevmpatiyalarni shish -gemorrargik shakli ustunligi qayd etildi. Bronxiolalar va alveolalar shilliq qatlami epiteliysini deskvamatsiyasi 1/5xolatlarda qayd etildi.

8-kundan so'ng bronxlar va bronxiolalar turli kattalikda, noaniq shaklda al'veolalar oralig'i to'qimasi o'zaro qo'shilib ketishi, zichlashishi, to'laqonliliigi, tomirlarini kengayishi, atrofiga qon quyilishi kuzatildi. Al'terativ va proliferativ jarayonlar ta'sirida o'chog'li pnevmoniya rivojlanishi qayd etildi. Atelektaz soxalarida biriktiruvchi to'qima o'sishi, sklerozlanishi kuzatildi.

Xulosa

Yangi tug'ilgan chaqoloqlarni 1-7 kunlik davrlarida ichki a'zolarida venoz to'laqonlilik va mikrostirkulyator o'zanida gemodinamik buzilishlar bilan birgalikda o'pka to'qimasida bilamchi va ikkilamchi atelektazlar, bronxiolalar shilliq qatlami deskvamatsiyasi kuzatildi. Gialin membranalar va mayda arteriyalarda konstitiv arteriit kuzatildi.

8-28kunlarida nafas olish yo'llari shakllangan, yuza faol moddani mukammalashishi ayrim respirator bo'limlarini differenstirovkasi va vaskulyarizatsiyasi bilan parallel bo'ldi. O'pkalarda venoz to'laqonlilik, shish, diapidez qon quyilishlar ko'proq kuzatilib, atelektaz va emfizemalar kuzatilmadi. Pnevmpatiyalarni shish -gemorrargik shakli ustunligi qayd etildi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Андриянычева Н. В. Современные медико-социальные аспекты младенческой смертности в условиях мегаполиса: дис. ... канд. мед.наук / Н. В. Андриянычева. – Санкт- Петербург, 2010. – 169 с.
2. Башмакова Н. В. Выживаемость и актуальные перинатальные технологии при выхаживании новорожденных с экстремально низкой массой тела // Российский вестник акушера-гинеколога. – 2012. – № 1. – С. 4-7.
3. Белова Н. В. Совершенствование системы прогнозирования и профилактики рождения детей с врожденными пороками развития (по материалам Чувашской респ.): автореф. дис. ... к.м.н./– Казань, 2008. – 22с.
4. Боконбаева С.Дж. и др. Этиология респираторного дистресс-синдрома у недоношенных новорожденных детей в городе Бишкек Кыргызской Республики. Междун.журнал прикладных и фунд.исс. – 2024. – № 8 – С. 9-12.
5. Геппе Н. А. Детские болезни: учебник / Геппе Н. А. - Москва: ГЭОТАР-Медиа, 2018. - 760 с. - ISBN 978-5-9704-4470-2. 126-129с.
6. Самохин П. А. Бронхолегочная дисплазия новорожденного: морфогенез, морфологическая диагностика. // Арх. патологии. —2008. — № 4. — С. 37–42.
7. Lepyokhina A.S. Radiological criteria for assessing the severity of respiratory distress syndrome in newborns / A.S. Lepyokhina, L.G. Konstantinova, G.E. Trufanov // Translational Medicine. - 2019. - Т 6, No. 2. - P. 18–24.

Qabul qilingan sana 20.05.2025